

“KECHA VA KUNDUZ” ASARIDA DAVR VA SHAXS FOJEASI

Dilafro‘z QALANDAROVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, fil.f.f.d., [PhD]

Shoxista SHOABROROVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878266>

Annotatsiya: Maqolada “Kecha va kunduz” romanidagi ijtimoiy hayot, siyosiy jarayonlar va ma’naviy bosim haqida so‘z boradi. Romanning davomi haqidagi ma’lumotlar haqida bir qancha tahminlar ko‘rsatiladi. Asardagi obrazlarning xilma-xilligi yaqqol ko‘zga tashlanganligi bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *adib, asar, roman, davr, shaxs, ijtimoiy hayot, fojia, obraz, epizodik obraz, harakter.*

Аннотация: В статье говорится об общественной жизни, политических процессах и моральном напряжении в романе «Ночь и День». Высказывается ряд догадок по поводу информации о продолжении романа. Констатируется, что хорошо видно многообразие образов в произведении.

Ключевые слова: *писатель, произведение, роман, период, личность, общественная жизнь, трагедия, образ, эпизодический образ, персонаж.*

Abstract: *The article discusses social life, political processes and moral pressure in the novel “Night and Day”. Several assumptions are made about the continuation of the novel. It is noted that the diversity of images in the work is clearly visible.*

Keywords: *writer, work, novel, era, person, social life, tragedy, image, episodic image, character.*

“Sir emaski, shunday asarlar bor: bir o‘qilib, so‘ngra kitobxon yodidan ko‘tarilib ketadigan, yoxud shunchaki adibning manfaati tufayli dunyo yuzini ko‘rgan buyurtma mahsulot sifatida nomlanuvchi ijod namunalari vaqt o‘tib o‘z-o‘zidan yo‘qlikka yuz tutaveradi. Aksincha, shunday asarlar bo‘ladiki, vaqt o‘tsa-da, o‘zining muxlisini, asosiysi, badiiy ahamiyatini sira yo‘qotmaydi” [1. 4.].

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani nafaqat xalqimiz, balki boshqa millat vakillarining ham qalbidan chuqur o‘rin olgan, dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan asar deb benihoya shodlik va g‘urur ila ayta olamiz. Kitobxon bu asarni

o‘qiganida istar-istamas o‘sha davr ichiga sho‘ng‘iydi, ijtimoiy hayotda hayolan bo‘lsa-da yashab ko‘radi.

Adib asarda o‘zi yashagan davrning chirkinliklari va u payt uchun odatiy hol deb qaralgan voqealarni tasvirlaydi. “Romandagi bosh mavzu inson tabiatini oydinlamoqlik. Inson yaralganidan buyon uning tabiatidan chiqib ketmaydigan manfaatparastlik, nafsga erk berib yuborish romanda eng mayda epizodlargacha singdirilgan, eng ko‘p ishlangan, me‘yoriga yetkazilgan. Shu jihatlar asarning eng katta yutug‘i bo‘lib, asarning qimmatli g‘oyasi ham shu mavzu ortidan keladi” [4. 1].

Asar boshidan sezish mumkinki, u davrda qizlar nihoyatda qattiq nazoratda bo‘lishgan. Ayol-qizlar qadri, ularga bo‘lgan hurmat eng oxirigidan-da oxirgi o‘rinlarda turgan. “Kecha va kunduz” romanida XX asr boshlarida Turkistonda bo‘layotgan siyosiy va oilaviy jarayonlar haqida so‘z ketgan. Unda erkaklar o‘z ayollarini qanchalik hurmat qilishi va or-nomus yuzasidan katta qizining ismi bilan chaqirishi, ammo Razzoq so‘fidek odam ahli ayolini “Fitna” deyishi jamiyatda shunday illatli insonlar borligini inkor etmaydi” [5. 4.]. Birgina eshonning so‘zi bilan 15 yoshli qizini 3 xotini bor mingboshiga tortiq qilishidan qizlar qadri qanchalar yerga urilgani ma‘lum. Bu holatlarni ma‘naviy bosim deb atashimiz to‘g‘ri bizningcha. Chunki, bir insonning hurmati, qadr-qimmatini, uni qasddan yo‘q qilishga urinish holatlari namoyon bo‘ladi mazkur jarayonda. Fikrimizcha, Zebining sudda surgun bo‘lib ketishi arafasida hech narsaga tushunmay, uyini qanday topib borish tashvishini qilishini u davrdagi soddalik belgisi deb hisoblashimiz mumkin. Davr ijtimoiy hayoti qiyinchilik va yetishmovchilik bilan kechgani romanda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, davlat xizmatchilarida bunday qiyinchiliklar bo‘lmagan. Miryoqub asarda alohida obraz desak adashmaymiz. “Miryoqub kishilar bilan munosabatga kirisharkan, avvalo, undan keladigan foydani – o‘z manfaatini ko‘zlaydi” [3. 129.]. U Noyib to‘ra bilan ham, Zunnun bilan ham, Akbarali mingboshi bilan ham o‘z nafsini yo‘lida birga edi.

Davlat uchun sodiq xizmat qilganlar va o‘z “ishi”ni qila olganlar ko‘klarga ko‘tarilib, har qanday holatda ham himoya qilingan. Oddiy xalq esa aybsiz paytda ham soddaligi tufayli jazolanavergan. Misol tariqasida, Zebi Mingboshini zaharlamagan aybsiz bo‘lsa-da, jazolanadi. Asarni o‘qish davomida ba‘zi insonlarning jirkanch ishlaridan yuz burishi, et jimirlash holatlari ham bo‘ladi. Sababi, roman ta’sirli va reallikka asoslangan. Miryoqubning do‘sti Zunnunning chirkin ishlari inson g‘azabini qo‘zg‘aydi. Axir, ular ham musulmon, o‘zbek farzandi-ku nahotki o‘z holatlarini sharmandali ekani haqida biroz bo‘lsa-da o‘ylamasalar. Erkak kishi nafsga yengiladi desak, mingboshining xotini ham bevafoqlik qiladi.

Asardagi jadid obrazi Miryoqubning yaxshilikka yurishiga bir turtki bo‘ladi. Suhbatlari qizg‘in kechadi. “Qiziq, gap degan shuncha ta’sirlik bo‘ladimi? Kecha men “jadid” degan so‘zni eshitsam, belim qayishardi. Yurtimizning katta, obro‘li, eslik odamlari hammasi jadidlarni yoqtirmas edi” [1. 191.].

Miryoqubning bu so‘zlaridan anglash mumkinki, jadid o‘zining rost so‘zlari bilan unga jadidlarning asl maqsadini ko‘rsatgan. Jadid epizodik obraz bo‘lsa-da, bosh qahramonlardan biriga juda katta, shu bilan birga yaxshi ta’sir o‘tkazadi. Noyib to‘ra shunday deydi: “Biz ruslar aroq ichishni hammadan yaxshi bilamiz... Senlar ham iste’dodli xalq ekansan, bizdan o‘tkaza boshlading” [1. 145.].

Bu so‘zlar orqali sezish mumkinki, xalqimiz nafaqat urf-odatlarini, balki o‘zligini ham boy bergan yillar edi u payt. Negaki, avval boshdan ota-bobolarimiz halollik, poklikni insondagi eng muhim fazilat sifatida uqtirib kelishgan. Bu borada o‘zbek millati ruslar kabi hayot tarzida yashashi juda achinarli holat. Davr siyosatidan kelib chiqsak, shunday bo‘lishi tabiiy, chunki ikki millat birga yashagandan so‘ng yashash tarzi ham bir xillashib ketaveradi.

Asarning ikkinchi qismi “Kunduz” haqida gap ketganda tahminlar juda ko‘p. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, asarning davomi yozib tugatilgan. Tahrirga ham topshirilgan. Roman 1987-yilda “Sharq yulduzi” tahririyati tomonidan chop etilayotgan kezlarda, uning Samarqandda istiqomat qiluvchi qandaydir bir kishining qo‘lida saqlanayotgani haqida “mish-mish”lar tarqaldi” [2. 301-302.] . Demak, asar tugatilgan, lekin uning umrboqiy bo‘lishini istamaganlar bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Shunda ham asarning birinchi qismidan ko‘p narsani o‘rganish mumkin. Bu esa Cho‘lponning naqadar iste’dodli ekanidan darak beradi. “Adabiyot o‘quylik. Adiblar yetishdirayluk, “adabiyot kechalari” yasayluk. Ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk. Agarda “bayoz” va be‘mani bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo‘lurmiz” [1. 287.].

So‘zlarimiz so‘ngida shuni ayta olamizki, asar qachonki yuksak mehr, hissiyot va mahorat bilan yaratilsa, kitobxon uchun zerikarli va javonda chang bosib yotuvchi kitob bo‘lmaydi. “Kecha va kunduz” romani millatimiz g‘ururi, sara durdonalarimizdan biridir. Asardagi obrazlar xilma-xilligi va harakterlar rang-barangligi insonni keyingi voqealarga qiziqtirib, kitobxonning zavqini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Kecha va kunduz” – T., “Ilm-ziyo-zakovat”. 2019-yil.
2. “Kecha va kunduz” – T., “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2004-yil.
3. D.Quronov. “Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon. “Yoshlar” nashriyot uyi. 2022-yil.
4. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali – 6-jild 5- son2023-yil.
5. Academic Research in Educational Sciences – Volume 3 Issue 5 2022.

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

6. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
7. Kalandarova, Dilafruz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
8. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
9. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
10. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim "Yilon", "Maqar", Kholiyor Safarov "Honor and Life", "Wingless Birds", "The Saddest Joy")." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
11. Маҳбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
12. O'RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.